



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2022 - yil 26 - aprel

300-4-0-Q/22

Qashqadaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi “Qashqadaryo viloyati tarkibida Ko‘kdala tumanini tashkil etish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 211-son qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi “Qashqadaryo viloyati tarkibida Ko‘kdala tumanini tashkil etish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 211-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi “Qashqadaryo viloyati tarkibida Ko‘kdala tumanini tashkil etish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 211-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ko‘kdala tumanini tashkil etish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi viloyat ishchi guruhi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat ishchi guruhi (Qodirov) bir oy muddatda - Ko‘kdala tumanini tashkil etish bilan bog‘liq zarur kompleks tashkiliy-texnik tadbirlar rejasini ishlab chiqib tasdiqlasin va uning belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini tashkil etsin.

4. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (Bo‘riyev), viloyat Moliya boshqarmasi (Yusupov), Maktabgacha ta‘lim boshqarmasi

(Mo‘minov) va Ko‘kdala tuman hokimligi tuman hokimligi hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlari uchun bino qurilgunga qadar “Ko‘kdala” MFY hududidagi pedagogika kolleji binosining bo‘sh turgan qismiga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirsin hamda moddiy-texnika vositalari bilan ta‘minlasin.

5. Viloyat Moliya boshqarmasi (Yusupov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi (Berdiyev) va Ko‘kdala tuman hokimligi ikki oy muddatda:

Ko‘kdala tumani hokimligini hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlarini saqlash xarajatlarini o‘z ichiga olgan Ko‘kdala tumani budjetining va tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning prognoz parametrlarini belgilasin;

Ko‘kdala tumanini tashkil etish davrida iqtisodiyot tarmoqlarining aniq, barqaror va bir maromda ishlashini, shuningdek, yuzaga keladigan ijtimoiy masalalar o‘z vaqtida hal etilishini ta‘minlasin.

6. Viloyat hokimligi tashkiliy nazorat guruhi (Donayev), viloyat Bandlik bosh boshqarmasi (G‘ofurov), Ko‘kdala tuman hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda Ko‘kdala tumani tashkil etilishi munosabati bilan yangi tashkil etilayotgan davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo‘linmalarini yetarli tajribaga ega bo‘lgan malakali kadrlar bilan to‘ldirish choralarini ko‘rsin.

7. Viloyat Statistika boshqarmasi (Maxmadaliyev) statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish va yuritishda Ko‘kdala tumanining ma‘muriy hududlarini inobatga olsin.

8. Davlat kadastrlar agentligi viloyat boshqarmasi (Usmonov), Davlat kadastrlar agentligi kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi (Xamrayev) bilan birgalikda bir oy muddatda Ko‘kdala tumani tashkil etilishi natijasida ma‘muriy – hududiy chegaralar o‘zgarishi munosabati bilan yer hisobotlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirish kiritsin.

9. Markaziy bank viloyat boshqarmasi (Mo‘minov), “Xalq bank” ATB viloyat filiali (Xasanov), “Agrobank” AT viloyat filiali (Yodgorov), “Mikrokreditbank” ATB viloyat filiali (To‘rayev)ga tijorat banklarining tuman filiallarini tashkil qilish tavsiya etilsin.

10. Adliya boshqarmasi (Ostonov), Ko‘kdala tumanida bo‘linma va filiallari tashkil etiladigan davlat organlari va tashkilotlarini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin.

11. Viloyat hokimi o‘rinbosari (Eshonqulov), viloyat Qurilish boshqarmasi (Shoymardonov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi (Berdiyev), viloyat Moliya boshqarmasi (Yusupov), Ko‘kdala tuman hokimligi va “O‘zshaharsozlikLITI” DUK bilan birgalikda uch oy muddatda Ko‘kdala tumani ma’muriy – hududiy chegarasini hisobga olgan holda 2040 yilgacha bo‘lgan bosh rejani ishlab chiqilishini ta’minlasin.

12. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2022 yil 26 apreldagi
300-4-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Ko'kdala tumanini tashkil etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi viloyat ISHCHI GURUHI

№	F.I.SH	Lavozimi
1.	Qodirov Alisher Abdulaxatovich	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari – Ishchi guruh rahbari
2.	Uzakov Ulugbek Yuldashevich	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari
3.	Eshonkulov Akbar Burxonovich	Viloyat hokimi o'rinbosari
4.	Yuldashev Rustam Daniyorovich	Viloyat hokimi o'rinbosari
5.	Qodirov O'tkir G'ayratovich	Viloyat hokimi o'rinbosari
6.	Avazov Azamat G'iyosovich	Viloyat hokimi o'rinbosari
7.	Ravshanov Olim Poyonovich	Xalq deputatlari Kengashi Qashqadaryo viloyati kotibiyati mudiri v.b.
8.	Mahkamov Abduqayum Mahkamovich	Viloyat sudi raisi
9.	Ostanov O'rol Suyunovich	Viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i
10.	Poyonov Odil Jumayevich	Majburiy ijro byurosining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i
11.	Karimov Akmaljon Shavkatovich	Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti viloyat boshqarmasi boshlig'i
12.	<i>Lavozim bo'yicha</i>	Qashqadaryo viloyati prokurori o'rinbosari
13.	Jumayev Faxriddin Umurovich	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qashqadaryo viloyat Xalq qabulxonasi mudiri
14.	Yusupov Fayzulla Yoqubovich	Qashqadaryo viloyati moliya bosh boshqarmasi boshlig'i
15.	Nisbatxonov Shukurulloxon	Qashqadaryo viloyati davlat soliq boshqarmasi boshlig'i
16.	Axmedov G'ulom Ergashevich	Qashqadaryo viloyati bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi boshlig'i
17.	Rajabov Alisher Hazratovich	Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i
18.	G'ofurov Rustam Abdurasulovich	Qashqadaryo viloyati Bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i
19.	Maxmadaliyev Baxrom Samadovich	Viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i
20.	Usmonov Jasur Ziyodullayevich	Kadastr agentligining Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i
21.	Mo'minov Bekzod Polvonovich	Markaziy bank Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmasi boshlig'i
22.	Yodgorov Farrux G'ofurovich	AT "Agrobank"ning Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i

23.	Hasanov Sardor Xazratqulovich	ATB "Xalq banki"ning Qashqadaryo viloyat filiali boshqaruvchisi
24.	To'rayev Sardor	"Mikrokreditbank" ATB Qashqadaryo viloyat filiali boshlig'i
25.	Murodov Furqat	AT "Qishloqqurilish bank" Qashqadaryo mintaqaviy filiali boshqaruvchisi v.b.
26.	Ernazarov Ulug'bek Murodullayevic	Qashqadaryo viloyati uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi boshlig'i v.b
27.	Shaymardonov Rasul Maxmadaminovich	Qashqadaryo viloyati arxitektura va qurilish Bosh boshqarmasi boshlig'i v.b
28.	Aripov Sandjar Kamalovich	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish hududiy boshqarmasi boshlig'i
29.	Jo'rayev Sherali Bo'riyevich	O'zbektelekom AJ viloyat filiali boshlig'i
30.	Namazov Narzulla Sharifovich	Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi boshlig'i
31.	Ibragimov G'anisher Ismoilovich	Qashqadaryo viloyati ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig'i
32.	Boymirov Obloyar Sobirovich	Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i
33.	Tursunov Igor Kahhorovich	Viloyat fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalari Kengashi raisi
34.	G'ulomov Fayzullo Qurbonovich	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i
35.	Djavliyev G'ayrat Choriyevich	"O'zbekchorvanasl" agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy "Chorvanasl" markazi direktori
36.	Rajabov Baxtiyor Eshtemirovich	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i
37.	Eshmatov Shuhrat Ochilovich	Viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
38.	Karimov To'liq Tursunovich	Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i
39.	Muminov Baxodir	Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
40.	Teshayev Bobur Qodirovich	Qashqadaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i
41.	Pakirov To'xtamurod Samadovich	Qashqadaryo viloyati Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazi bosh shifokori
42.	Poyonov Temur Olimovich	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i
43.	Ruziyev Vaxob	Viloyat sportni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
44.	Tursunov Shuhrat Hamidovich	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i
45.	Jalolov Shoxrux Anvarovich	Viloyat turizm va madaniy meros boshqarmasi boshlig'i
46.	To'rayev Isoq Latipovich	Qashqadaryo viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i